

BADIIY ASARDA ETNOGRAFIK SO'ZLAR (A.QAHHOR ASARLARI ASOSIDA)

Isroilova Guljahon Jamolovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy asarlarda etnografik so'zlarning vazifasi va ahamiyati haqida so'z yuritilib, Abdulla Qahhor asarlari asosida tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *Etnografik so'zlar, mahalliy kolorit, nutqni individuallashtirish, tushirindi, dam solmoq, buvaqovoq, haytov, sichqon surdi, og'izboylar, tutmindi, yashin topaloq, chirog'poya.*

Etnografik so'zlar muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o'zlariga xos bo'lgan urf-odatlarini nomlari sifatidagi so'zlardir. Ular adabiy tilda o'z manodoshiga ega emas. Buning asosiy sababi etnografik so'zlar xalkning ijtimoiy turmush tarzi, diniy, madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ular ham sof dialektizmlar kabi badiiy matnga mahalliy kolorit berish, personajlar nutqini individuallashtirishda ta'sirchan vosita sifatida qo'llaniladi. Etnografik so'zlar badiiy matnga o'zni bilan biror-bir maqsadni ko'zlab olib kirilgandagina ma'lum bir uslubiy vazifani ado etadi hamda badiiy matnga milliy-estetik ruh bag'ishlaydi[5; 81].

Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasida etnografik so'zlar boshqa asarlariga nisbatan ko'p uchraydi. Chunki asar o'tmish hayotini aks ettirganligi sababli ham unda o'sha davr kishilarining e'tiqodi, irim-sirimlari, yashash tarzining haqqoniy manzarasi chizilgan. Ular qissaning o'ziga xosligini, badiiyatini ta'minlashda badiiy-estetik vosita bo'lib kelgan.

Ma'lumki, qissada o'tmishimizda ota-bobolarimiz qanday turmush kechirganlari, ular boshdan o'tkazgan dahshatli voqealar tasvirlangan. Tanqidchilar "royat realistik, mardona realistik, hatto shafqatsiz realistik" asarni "ertaklar" deb atalishi unchalik to'g'ri emasligini aytishganda, Abdulla Qahhor buni uzok o'ylaganini va hozirgi zamon o'quvchisi uchun o'sha davrning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealari, o'tmish dahshatlari hakikatan "adabiy ertak" bo'lib qolishini istaganini aytadi.

Qadimda odamlar kasal bo'lsa, asosan mulla va folbinlarga murojaat qilishgan. Folbinlar fol ko'rib, kasalni qayerdan kelib chiqqani va davolash yo'llarini o'rgatsa, duog'oy domlalar dam solib, duo o'qib ularni "yengil" qilishga harakat qilishgan.

Bu odam juda zo'r, duoning kuchi bilan qulf ochadigan azayimxon bo'lib, aytilgan joyga bir zumda yetib borgani uchun «Ucharmoxsum» deb nom chiqargan ekan. Dadam borib shu azayimxonni olib keldi. Bular ayamning ikki tomoniga o'tirib uzoq o'qishdi, dam solishdi, keyin bilishimcha, bular ayamni «chilyosin» kilishgan, «chilyosin» uzok yotgan kasalni yo uyoqli, yo buyoqli qilar ekan, xayriyat, ayamni buyoqli kildi. Kampir bolaning kasal bo'lishiga birdan-bir sabab ayamning «kasofat»ligi deb bilsa ham, qushnoch toptirdi. Qo'shnoch kelib O'lmasoyni xipchin bilan savalab ko'chirdi, qora tovuq so'yib qonladi. Bandi eshon har kuni saharda avrod o'qir ekan, ayam har kuni

saharlab O'lmasoyni ko'tarib avrodga boradigan bo'ldi. ("O'tmishdan ertaklar") Keltirilgan parchada azayimxon, dam solmoq, qushnoch, xipchin bilan savalab ko'chirmok, qonlamok so'zlari etnografik so'zlar hisoblanib, ular asarda azayimxon-kasallarga dam solib, sehr-afsunlar o'qib "davolash" ni o'ziga kasb qilib olgan odam (O'TIL.1.47.), dam solmoq-duo qilib, "kuf-suf"qilmoq, kufsuflamoq (O'TIL.1.550.), qushnoch-sannach, ko'chirmachilik bilan kasal boquvchi tabib (O'TIL.5.394), qonlamoq-jonlik so'yib, uning qonini bemorning badaniga surmoq, ma'nolari bilan qatnashgan.

Onam yuragi yorilguday bo'lib yuzimga suv sepdi, ho'l ko'yagimni yechib tashlash ham esiga kelmay, latta yoqib boshimdan aylantirib tashladi, alasladi. Alasladi so'zi xam etnografik so'z bo'lib, yot narsalardan xalos qilish maqsadida latta yoqib buyum yoki kishi atrofida aylantiriladi.

Shuningdek, asli etnografik bo'lmagan so'zlarni xam shu taxlit qo'llaydi: Sallasi kattakon bir domla kelib Umaraliga uzoq dam soldi, keyin dadamga yuzlanib: «Azizlarga bir jondor ko'taring», dedi. Dadam xudoi «azizlar mana buni olsinu o'g'limni bersin» deganday og'ildan darrov buzoqchamizni yetaklab chiqdi va uni Shohimardonga atab, domladan fotiha oldi. Ertasiga bir xotin kelib Umaralini childirma bilan «ko'chirdi». Keltirilgan parchadagi "ko'tarmok", "ko'chirmok" so'zlarining semalari tarkibida kishilar yashash tarzi, urf-odati bilan bog'liqlik semalari mavjud emas. Ko'tarmok-yerdan ajratib olmoq, baland ko'tarmoq, ko'paytirmoq, hazm qilmoq, toqat qilmoq, ichmoq, qarz olmoq (O'TIL.2.474.) kabi bir qancha ma'nolarni bildiradi. Adib bu so'zni jondor -(tirik mavjudot, jonzot (O'TIL.2.105))so'zi bilan biriktirib "jondor ko'tarmoq", yani xudo yoki biror aziz avliyo uchun qurbonlik ma'nosini beruvchi etnografik iborani vujudga keltirgan.

Irim-sirimlar, doktorlar emas, dam soladigan domlalarga ishonadiganlar hozirgi kunda xam ko'pchilikni tashkil etadi. Yozuvchi bugungi kun kishilari hayotini tasvirlashda etnografik so'zlardan foydalanganda asarda kulgi qo'zg'atish, kinoyaviy mazmunni kiritish, shuningdek, vrachlardan ko'ra shunaqa irimlarga ishonadigan kishilar borligini ko'rsatishni ham maqsad qilib oladi: Yaxshi, aqllik ish qilibsiz. Duxtur harom uldurib qo'yar edi. Men dam solib qo'ydim, xudo xohlasa erta-indin yurib ketadir. Xayr. ("O'zing shifo ber") [Hojar]. Judayam soz emaslar, boshlari tez-tez og'rib turadi. Qori pochcham dam solsalar, darrov tuzalib qoladilar. Birinchi misolda kahramonning vrachlarga murojaat qilmasligi, ziqnaligi va shuning oqibatida uning o'limi ko'rsatilsa, keyingi gapda "Tobutdan tovush" dramasi qahramonlaridan biri Netayxonning qori bilan aloqasini kinoya yo'sinida kitobxonga tasvirlab beradi. Adib xalq hayoti, urf-odatini ko'rsatishda marosim nomlari va ularning o'tkazilishi, qonun-qoidalarini keltirib o'tib, adabiy tilga kiritishga harakat qilgan: Qiziqmisan o'zing, dunyoda qaysi bir qiz ko'ngli bo'lganga tegipti? Qaysi bir qiz ko'ngli bo'lmaganga tegmapti? Tushirindida yig'lamasdan aravaga chiqqan kelin bormi? ("O'tmishdan ertaklar") Valixon so'fi yurt boshiga kelgan vabo, ochlik, boshqa hamma falokatni «mana shu kasofatlar»ga to'nkadi, so'zini tamom qilib: «Ur, ko'zani!» dedi. Bu o'rinda ko'za ramazon oyida ro'za tutmagan

kishiga nisbatan ishlatilgan. Xalqimizda ro'za tutmagan odamni "ko'za" ya'ni "og'zi ochiq" deb atashadi. Ayam o'rnidan turganidan keyin mahalladan bir qancha xotin-xalaj taomilga ko'ra, har biri topgan-tutganini ko'tarib «sichqon surdi»ga kirishdi, o'zlari osh-ovqat kilishdi. «Haytov»ga solinadigan kishi aldab mehmonxonaga olib kirilar, hamma «haytov» deb shovqin solayotganda bir necha kishi uni bosib, dodlaganiga quloq solmay, soqol-mo'ylovini qirib tashlar ekan; birov, kaltakesak yedirib so'fini pes kilish kerak, pes bo'lsa so'filikdan bekor bo'ladi, debdi; birov, so'figa eshakning miyasini yedirib jinni kilish kerak, debdi; birov uni «chirog'poya» qilishni taklif kilibdi, «chirog'poya» bo'lgan kishi qishloqdan qochib ketishga majbur bo'lar ekan. Butun kecha shu haqda gap bo'lib, so'fining adabini berish to'g'risida har xil takliflar bo'libdi, birov «so'fini «haytov»ga solish kerak» debdi. ("O'tmishdan ertaklar")

O'sha yili kuzakda unga birdan ikki kishi sovchi qo'yibdi: biri - qishlok aktivlaridan shu Qalandarov, ikkinchisi — Asad boyvachcha degan mol-dunyosi ko'p bir kishi ekan. Hurinisoning ota-onasi Asad boyvachchaga rozilik berib, «og'izboylar» bo'ladigan kunlari Qalandarov bir nima

qilibdi-yu, ishni buzibdi, bir haftaning ichida hamma rasm-rusumni joyiga qo'yib, Hurinisoni nikohlab olibdi. ("Sinchalak")

Keltirilgan misollardagi tushirindi (kelinni olib ketish marosimi), sichqon surdi (kasal tuzalgandan keyin ko'rishga borish), haytov (atrofdagilarning hayt-hayti ostida kishining soqol-mo'ylovini qirib tashlash), chirog'poya (kishini oyog'idan osib qo'yib, oldiga sham yoqib qo'yiladi), og'izboylar (fotiha) singarilar xalq hayotini, urf-odatlarini aks ettiruvchi etnografik so'zlar hisoblanadi.

Shuningdek, "O'tmishdan ertaklar" qissasida bolalar o'ynaydigan bir qancha o'yin nomlarini ham keltirib o'tadi: Shundan keyin «Buvaqovoq» degan o'yin boshlandi. Qirg'izbashara jikkakkina bir odam ayvonning bir chekkasiga tutib qo'yilgan bordon orqasidan uchta sanochni bittama-bitta zo'rg'a ko'tarib chiqdi-yu, keltirib so'rilar davrasiga qo'ydi va kattakon shokosani chertib, qimizini maqtay ketdi. O'sha bordon orqasidan oq eshak mingan, novcha, sallasi qozonday, qorni eshakning yoliga, uzun ayri soqoli qornining ikki tomoniga tushgan bir odam chiqdi. "Buvaqovoq" degani shu ekan. Shunday kilib, piston kasofatining sharofati bilan «xudoga shukur, bozorshablarga boradigan kap-katta yigit» bo'lib qolganimdan keyin vaqt bemahal ko'chaga chiqsam, bolalar bilan yashin topaloq, tutmindi, dasta, to'ppi tepish o'ynab uzoq yursam ham ayam tergamas, aksincha, behad quvonar edi. ...bir kuni, eshigimi sloida loyparsilloq o'ynab o'tirgan edim, guzar tomondan bir to'da otliq qozok-o'ris kelib koldi. Bularning kizagi qizil ko'k shapkasiga, chakkasida hurpayib turgan sochiga, kiyim-boshi va shopsholopiga qarab angrayganimcha ergashib ketaveribman.

Yozuvchi ijodida etnografik so'zlar xalqning turmush-tarzi, urf- odatlarini tasvirlashda hamda kinoyaviy mazmunni yuzaga chiqarishda faol qo'llangan. Shuningdek, adib bunday so'zlarni o'z asarlarida qo'llash orqali xalq tilida bo'lgan

marosim, o'yin, askiya va shu kabilarning nomlarini adabiy tilimiz lug'at tarkibiga kirishiga zamin hozirlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Qahhor. Asarlar, besh jildlik, ikkinchi jild. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. -368 b.
2. Abdulla Qahhor. Asarlar, besh jildlik, uchinchi jild. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. -368 b.
3. Abdulla Qahhor. Asarlar, besh jildlik, to'rtinchi jild. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. -336 b.
4. Abdulla Qahhor. Asarlar, besh jildlik, beshinchi jild. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. -272 b.
5. Normurodov R. Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari: Filol.fan.nom... diss. - Toshkent, 2001. - 140 b.
6. Isroilova. M. The stylistic role of comparison in publicistic texts //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 196-198.
7. Isroilova M. Emotional and evaluative components of comparative phraseological units //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 49-52.
8. Isroilova M. Comparative phraseological units-as an integral part of publicistic texts //international scientific conferences with higher educational institutions. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 139-143.
9. Hasanov A. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini taminlovchi leksik-stilistik vositalar.Filol.fan.nom...diss. Toshkent.2010.-153 bet.
10. Karimov S.A. O'zbek tilining badiiy uslubi: Filol.fan.dok.. diss, - Samarqand, 1993. - 293 b.
11. Yo'ldoshev M. CHO'lponing badiiy til mahorati: Filol.fan.nom... diss. - Toshkent, 2000. - 145 b.
12. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol.fan. dok... diss.avtoref. - Toshkent, 2009. - 48 b.